

**KREATIV PEDAGOGIKA: O‘QUVCHILARDA IJODIY  
TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI**

**Xatamova Marjona**

Andijon davlat chet tillari instituti

ingliz tili adabiyoti fakulteti 213-guruh

**ANNOTATSIYA**

Mazkur tezisdagi kreativ pedagogikaning ijtimoiy fanlar tizimi hamda ta’lim amaliyotidagi o‘rni va ahamiyati, shuningdek, uzluksiz ta’lim jarayonida shaxsni o‘qitishning ijodiy yo‘nalishini amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari va yo‘llari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** kreativlik, kreativlikni rivojlantirish, ijodiy salohiyat, pedagogik kreativlik, o‘qituvchining kreativlik salohiyati, tamoyillar.

**АННОТАЦИЯ**

В тезисе рассматриваются роль и значение креативной педагогики в системе социальных наук и образовательной практике, а также педагогические условия и пути реализации творческой направленности обучения личности в процессе непрерывного образования.

**Ключевые слова:** креативность, развитие креативности, творческий потенциал, педагогическая креативность, творческий потенциал учителя, пути развития творческого мышления, принципы, критерии,

**ANNOTATION**

The thesis discusses the role and significance of creative pedagogy in the system of social sciences and educational practice, as well as the pedagogical conditions and ways of implementing a creative approach to teaching individuals in the process of continuous education.

**Keywords:** creativity, development of creativity, creative potential, pedagogical creativity, teacher's creative potential, ways of developing creative thinking, principles,

### **Kirish**

Bugungi globallashuv kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo'layotgan o'zgarishlar shuni taqozo qilmoqda. Shu munosabat bilan turli soha olimlarining e'tibori pedagogik jarayon sharoitida talaba shaxsining kreativ salohiyatini ochish va rivojlantirish muammosi qaratilgan. Demak, zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonini tashkil etishning yangi paradigmatic asoslarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi va bu esa pedagogikaning yangi innavotsion yo'nalishi ya'ni kreativ pedagogikaga murojaat qilish imkoniyati yaratadi. Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariya va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida: pedagogika tarixi va ta'lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika va psixologiya, o'qitish va tarbiyalash usullari va texnologiyalari, kasbiy etika va boshqalarda ko'rib chiqiladi.

Lotincha "kreativlik" tushunchasi quyidagicha. Kreativlik (ijodkorlik) atamasini ilmiy muomalaga va psixologiyaga keng miqyosda kiritgan olim Jorj Meni (George Land) hisoblanadi (yoki ba'zi manbalarda J.P. Guilford tadqiqotlari asosida rivojlangan deb qaraladi). "Creatio" - "yaratish", "ijodkor" - "yaratuvchi", degan ma'nolarni anlatadi, lekin mohiyatan bu tushuncha insonning ijodiy qobiliyatini namoyon bo'lishi dir.

### **Asosiy qism.**

Ijod madaniyat singari, inson hayotiga, demak, ta'lim tizimiga ham kirib borishi kerak. Binobarin, ijodiy pedagogikaning ijtimoiy fanlari tizimida pedagogikaning yangi tarmog'i sifatida rivojlanishi uchun qator shart-

sharoitlar mavjud. Kreativ pedagogika - bu ijodiy ta'limi fani va san'ati dir. Bu pedagogikaning majburlash pedagogikasi, hamkorlik pedagogikasi, tanqidiy pedagogika kabi pedagogika turlariga qarama-qarshi bo'lgan pedagogikaning bir turi hisoblanadi. Kreativ pedagogika o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, kelajagi yaratuvchi bo'lishga o'rgatadi. Kreativ pedagogika, har qanday fanga, xoh matematika, xoh fizika, xoh tillar, xoh iqtisod bo'lsin, qo'llanilishi mumkin bo'lgan pedagogika dir. Ma'lum darajada aytish mumkinki, uning metodologiyasi o'qitish va o'rganish jarayonini o'zgartiradi. Rivojlangan kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir. U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish, bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, aqliy harakatlarni rejalashtirish va ketma ketlashtirish, maqsadga erishish variantlari va usullarini izlash istagida ifodalanadi; Shuningdek shaxsda stenik tuyg'ular (kognitiv va ijodiy faoliyatdan quvonch hissi, ixtirolar jarayonida qiyinchiliklarni engishga tayyorlik, kognitiv yoki ijodiy maqsadga erishishdan g'ururlanish, biror narsa o'ylab topish imkoniyatidan zavqlanish, ijodiy ish boshlanishidagi optimistik faollik, uning ijobiy natijasini kutish, muvaffaqiyasizliklar holatida xotirjamlik va boshqalar) ham hosil bo'ladi.

Pedagogik kuzatish chog'ida talabaning kreativlikka oid bilimlarini boyitish, vaziyatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga suhbat metodi yordam beradi. Suhbat indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi.

Pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillarni anketa metodi boyitadi

. Metod tizimli savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Savollarga javoblar, odatda, yozma shaklda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketalar

*ilmiy –amaliy anjuman*

quyidagicha bo'ladi: 1) ochiq savollar (erkin, batafsil javob berish uchun imkon yaratadigan savollar)ga ega; 2) yopiq savollar ("ha, yo'g" "ijobiy", "salbiy" va h.k. tarzda javob variantlarini tanlashga imkon beradigan savollar)ga ega anketalar.

Zamonaviy sharoitda deyarli barcha sohada olib boriladigan tajribalarda jarayonida go'llaniladigan metod bu ekspert baholash metodi T.Amabile (Consensual Assessment Technique asoschisi ) bu metodni qo'llagan va bu metod keng ommalashgan ilmiy tadqiqot metodlardan biri sanaladi. Ko'p holatlarda shaxsda kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyat ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniglash psixolog, pedagog va bevosita kreativlikka dahldor sohalarning vakillari malakali mutaxassislar ishtirokida amalga loshiriladi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida pedagogik tahlil metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan shaxs tomonidan kreativlik sifatlari, imkoniyatlari va malakalarining o'zlashtirish darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, pedagog tomonidan ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Metodlar shaxsning kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalariga egaligini tashxislash hamda baholashga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda shaxsning kreativlik sifatlari, ijodiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalariga egaligini tashxislashda o'nlab metodlar qo'llanilmoqda. Ular orasida bir guruh metodlar amaliy jihatdan samarali bo'lib, ular rivojlangan xorijiy mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda. Gauening "Zahiraviy model" Slosson testi, Vekslerov shkalasi. Vekslerov shkalasi ("WPPSI" testi), boshlang'ich maktablar uchun mo'ljallangan Stanford testi hamda Torrens testlari (jumladan, "Tugallanmagan rasmlar testi) shular jumlasidandir.

Pedagogik tajriba (lot. "eksperiment" — "tajriba qilib ko'rish") metodidar muammo yechimini topish imkoniyatlarini organish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

### Tajribalar

Bu borada ko'plab tajribalar olib borilgan misol uchun Gulnoza Baynazarova olib borgan tajriba davomida 120 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilar tajriba (61 nafar) va nazorat (59 nafar) guruhlariga bo'lingan. Tajriba guruhida kreativ pedagogika tamoyillariga asoslangan maxsus darsliklar, qo'llanmalar va interaktiv texnologiyalar qo'llanilgan. Nazorat guruhida esa an'anaviy o'quv metodlari va materiallaridan foydalanilgan. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning faoliyatini, ijodiy fikrlashini, motivatsiyasini va darsga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratildi. Tajriba natijalari o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatini sezilarli darajada o'zgartirdi. Kreativ pedagogika qo'llangan guruhlarda o'quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va ijodiy fikrlash darajasida sezilarli darajada oshdi. O'quvchilarning dars jarayonida faollik ko'rsatish dinamikasiga kelsak, interfaol metodlar yordamida o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqi yuqori darajaga ko'tarildi.

### Xulosa

Zamonaviy ta'limda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan va quyidagi xulosalarga kelindi. Innovatsion ta'lim metodlari va texnologiyalari orqali o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari takomillashtirish, ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishga ko'maklashishdan iborat edi. Tadqiqot davomida mavzuga oid ilmiy-nazariy

qarashlar chuqur o'rganildi, mavjud muammolar aniqlanib, ularni hal etish yo'llari tahlil qilindi.

Tajriba-sinov jarayonida kreativ pedagogikaga asoslangan ta'lim metodlarining o'quvchilarning faolligi, qiziqishiga, o'zlashtirish sifatiga va ijodiy qobiliyatlariga ta'siri eksperimental ravishda tekshirildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, kreativ pedagogikani qo'llash ta'lim jarayonida ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Metodlar o'quvchilarni darsga faol jalb qilishga, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Tajriba guruhidagi o'quvchilarning testnatijalari, faollik ko'rsatkichlari va qoniqish darajalari nazorat guruhidagi o'quvchilarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1 KREATIV PEDAGOGIKA: XXI ASR TA'LIMINING DOLZARB TALABI <https://doi.org/10.5281/zenodo.15779212> Abdusoatova Marjona Xayrulla qizi

2 KREATIV PEDAGOGIKA – PEDAGOGIKAGA YANGICHA YONDASHUV Ruzimatova B.S., Yulchiyev I.I. Farg'ona politexnika instituti,

3 D.I. Ro'ziyeva. «Pedagogik innovatsiyalar va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish». — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi,

2012. – Innovatsiyalar va ta'lim jarayonlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar.

4N.H. Jorayev. «O'quv jarayonida kreativ yondashuv». — Samarqand: Ziyonashr, 2021. – Kreativ yondashuvlar va ularning ta'limdagi o'rni haqida tadqiqotlar. [HTTPS://ORCID.ORG/0009-0002-1371-24565](https://orcid.org/0009-0002-1371-24565)KREATIV

PEDAGOGIKA: TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

Gulnoza Baynazarova Xalqaro Nordik universiteti magistranti